

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**MASHINASOZLIK
ILMIY-TEXNIKA JURNALI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ**

**НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
МАШИНОСТРОЕНИЕ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS REPUBLIC
OF UZBEKISTAN
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE
SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL
MACHINE BUILDING**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-dekabrda 310/10-son qarori bilan Andijon mashinasozlik institutining “Maashinasozlik” ilmiy-texnika jurnali “TEXNIKA” va “IQTISODIYOT” fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yhatiga kiritilgan.

Ushbu jurnalda chop etilgan materiallar tahririyatning yozma ruxsatisiz to‘liq yoki qisman chop etilishi mumkin emas. Tahririyatning fikri mualliflar fikri bilan har doim mos tushmasligi mumkin. Ilmiy-texnika jurnalida yozilgan materiallarning haqqoniyligi uchun maqolaning mualliflari mas‘uldirlar.

| Transport | |
|---|-----|
| Статические характеристики оптоэлектронных дискретных преобразователей перемещений с полыми и волоконными световодами <i>Холматов У.С.</i> | 128 |
| Use of the expert assessment method in technological equipment of automobile enterprises <i>Islomov Sh.E.</i> | 136 |
| Метод восстановления поверхности катания цельнокатных колес пассажирских вагонов <i>Зайнитдинов О.И., Абдуллаев Б.А., Галимова Ф.С., Гайинов А.Б.</i> | 144 |
| Karter moyining tarkibiy tahlili yordamida avtomobil dvigatellarini diagnostikalash usuli tahlili <i>Umirov I.I.</i> | 155 |
| Yuk vagon g'ildiraklariga kuch ta'sir qilganda, diskdan obodga o'tish qismida hosil bo'ladigan kuchlanishlarni solidworks dasturida aniqlash <i>Шоқучқоров Қ.С., Абдуллаев Б.А., Гайинов А.Б., Джаббаров Ш.Б., Хикматов Ф.Ф.</i> | 161 |
| Основные тенденции цифровизации транспортно-логистических провайдеров <i>Илхомов С.С.</i> | 166 |
| Avtomobil old oynasini avtomatik tozalash qurilmalarining tahlili <i>Saydaliyev I.N.</i> | 173 |
| Оценка устойчивости грузового вагона при движении на кривых участках пути <i>Намозов С.Б., Рахматов Х.А., Джаббаров Ш.Б.</i> | 179 |
| Iqtisodiyot | |
| Развитие системы менеджмента качества предприятий лёгкой промышленности и совершенствование методов её оценки в условиях цифровизации <i>Сафина Н.Т.</i> | 186 |
| Зарубежный опыт цифровой трансформации экономики <i>Сотволдиев А.А.</i> | 200 |
| “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi: sanoat mahsulotlari eksportining istiqbollari <i>Pyosov A.A.</i> | 209 |
| Agroklastlar faoliyatini rivojlantirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish <i>Qobulova M.Y.</i> | 216 |
| Цифровая экономика в эпоху глобализации <i>Халилов Н.Х.</i> | 224 |
| Issiq iqlimli mintaqalarda foydalanishi mo'ljallangan avtomobillarini yonaki to'qnashuvda himoyalash tizimi sinov usullari <i>Qayumov B.A.</i> | 232 |

Qobulova Maxpubaxon Yakibovna, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti katta o'qituvchisi, Email:mahbubahon76@gmail.com; Tel:+998(99) 930 76 00

AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ ПРИ РАЗВИТИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АГРОКЛАСТЕРА

EFFECTIVE USE OF LABOR RESOURCES IN THE DEVELOPMENT OF AGROCLUSTER ACTIVITIES

Аннотация. Maqolada qishloq xo'jaligi klasterlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari ko'rib chiqildi. Har qanday faoliyat turidagi samaradorlik pirovard natijada vaqt bilan o'lchanadi, vaqt mahsulot birligini yoki xizmatlar birligini ishlab chiqarishga sarflanadi. Bunda mahsulot va xizmatlar sifatiga qo'yiladigan talablarga katta e'tibor beriladi.

Аннотация. В статье рассматривались вопросы эффективного использования трудовых ресурсов в сельскохозяйственных кластерах. Эффективность в любом виде деятельности в конечном счете измеряется временем, время затрачивается на производство единицы продукта или единицы услуг. При этом большое внимание уделяется требованиям к качеству продукции и услуг.

Annotation. The article dealt with the issues of the effective use of labor resources in agricultural clusters. Efficiency in any type of activity is ultimately measured in time, time is spent on the production of a unit of product or a unit of services. In this case, great attention is paid to the requirements for the quality of products and services.

Калит сўзлар. mehnat samaradorligi, mehnat sarfi, integratsiya, mehnat resurslari, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish, klaster, **qishloq xo'jaligi**, strategiya, tarmoqlar rivojlanishi, mehnat potentsiali.

Ключевые слова. эффективность труда, потребление рабочей силы, интеграция, трудовые ресурсы, производительность труда, производство, кластер, сельское хозяйство, стратегия, развитие отрасли, трудовой потенциал.

Keywords. labor efficiency, labor consumption, integration, labor resources, labor productivity, production, cluster, agriculture, strategy, industry development, labor potential.

KIRISH

Jahonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash sharoitida investitsion faollikni oshirish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish, xalqaro erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda ishlab chiqarishning samarali shakli sifatida sanoat klasterlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarini barqarorligiga ta'sir etuvchi eng asosiy omillaridan biri inson resurslari tomonidan boshqaruv tizimini yetarli darajada amalga oshirilmayotganligi xisoblanadi, shu nuqtai nazaridan boshqaruv samaradorligi xo'jalikni barqarorligiga, iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omil sifatida yuqori malakaga ega bo'lgan oliy malumotlilarni sonini ko'paytirish dolzarb xisoblanadi.

Iqtisodiyotni yangilash sharoitida aholini ish bilan bandligini ta'minlashda qishloq aholisi mehnat salohiyatidan samarali foydalanish ijtimoiy totuvlik va barqarorlikka erishuvning, jamiyat iqtisodiy rivojining muhim omilidir. Bozor munosabatlarini rivojlanishi qishloq aholisini ish bilan bandlik sohasidagi hukumatimizning inson omiliga qaratilgan

strategiyasida mehnatga qodir har bir inson o'z qobiliyatlarini o'stirish va o'z mehnat tarzini ta'minlashi uchun sharoitlar yaratishi nazarda tutadi[3].

Mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi. Kishilar yoshining ulg'ayishiga qarab Mehnat resurslariga dastlab qo'shiladilar, so'ngra (yoshi o'tgach) undan chiqadilar. Ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda 16-59 yoshdagilar mehnat resurslariga kiritiladi. Mehnat resurslari o'sishi aholining ko'payishiga bog'liq. Aholi tarkibida yoshlar qanchalik ko'p bo'lsa, Mehnat resurslari shunchalik tez o'sadi. 20-asr oxiri 21-asr boshlarida O'zbekistonda Mehnat resurslari har yili 320-350 ming kishi atrofida ko'payib bordi. Ularning asosiy qismini mehnat yoshiga qadam qo'yanlar tashkil etadi[4].

Mehnat resurslari soni miqdoriy ifoda bo'lsa, mehnat yoshidagilarning bilim saviyasi, malakasi, kasbiy mahorati va ishbilarmonligi uning sifatini yaratadi. Ta'lim tarbiya, malakani oshirish, sog'liqni ta'minlash, uni mustahkamlash uchun sarflar inson kapitaliga investitsiya bo'lib, Mehnat resurslari ni takroran yaratishga xizmat qiladi. Mehnat resurslari mehnat bozori orqali taqsimlanadi. Mehnat resurslari ban-dligi - mehnat yoshidagi kishilarning ish bilan ta'minlanishi, ularning tovar va xizmatlar yaratishda ishtirok etishi. Mehnat resurslari tarkibidagi ishlashga talabgor bo'la turib ish topa olmaganlar ishsizlar hisoblanadi[12].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi kunda O'zbekistonda texnika taraqqiyotini belgilovchi tarmoqlarda bugungi kun talablari darajasida kadrlar tayyorlash yetarlicha emas. Shuning uchun xam, yaratilayotgan yangi ish joylari kadrlar tayyorgarligi, bilimi o'rtasida nomutanosibliklar kelib chiqmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish ustuvor vazifa qilib belgilangan [2].

Shu bilan birganlikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-sonli Farmonida quyidagi ustuvor vazifalar sifatida oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash..., yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish [1] belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtda bajarishi uchun-ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'lqo'yiladi [3].


Usul. Biz yana «mehnat samaradorligi» degan ta'rifni ham aniqlab olishimiz kerak. U mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlaridan biridir. Har qanday faoliyat turidagi samaradorlik pirovard natijada vaqt bilan o'lchanadi, vaqt mahsulot birligini yoki xizmatlar birligini ishlab chiqarishga sarflanadi. Bunda mahsulot va xizmatlar sifatiga qo'yiladigan talablarga katta e'tibor beriladi.

Shu nuqtai nazardan mehnatni tatbiq etish samaradorligi – yuqori sifatli pirovard natijaga mehnat sarfini kamaytirishdir.

Yuqorida belgilangan masalalarni xal qilishning muhim dastaklaridan biri qishloq xo'jaligi tarmoqlari integratsiyasini rivojlantirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalaridan **xisoblanadi**.

1-chizma.

Inson kapitalining samarali rivojlanish omili [12]



Inson kapitalini kapitallashtirish mazmuni va shartlarini tahlil qilish inson kapitalining zamonaviy axborot va innovatsion jamiyatning iqtisodiy toifasi sifatida umumiy ta'rifini ishlab chiqish imkonini beradi. "Inson kapitali - bu investitsiyalar natijasida shakllangan va shaxs tomonidan to'plangan, mehnat jarayonida maqsadga muvofiq foydalaniladigan, uning mahsuldorligi va daromadlarining o'sishiga yordam beradigan salomatlik, bilim, ko'nikma, qobiliyat, motivatsiyaning ma'lum bir zaxirasi" [5].

Demak, qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan yil davomida to'liq va samarali foydalanish hamda ularning mehnatlari unumdorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir[5]:

- tarmoqning rivojlanishini e'tiborga olgan holda qo'shimcha ish joylarini tashkil etish;
- tarmoqning ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va moddiy-texnika ta'minotini yuksaltirish;

- qishloq xo'jaligiga yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish;
- qishloqda tadbirkorlik shakllarini rivojlantirish;
- qishloqda ishlash va yashash uchun barcha sharoitlarni yaratish;
- mehnatni tashkil etishning samarali turlarini tashkil etish va rivojlantirish;
- kadrlarni tayyorlash, malakalarini oshirish, ularni moddiy, ma'naviy rag'batlantirishni takomillashtirish va boshqalar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bunda inson organizmining nafaqat biologik xususiyatlari, balki mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, aholining turmush darajasi, umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimining holati, o'rtacha umr davomiyligi va boshqalar ham hisobga olinadi. Shularga asoslangan holda aholini yoshiga ko'ra 6 guruhga bo'lish mumkin.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslari tarkibi. (ming kishi) [12]

| № | Ko'rastkichlar | Yillar | | | | 2022 yil 2018 yilga nisbatan % |
|----|------------------------------|---------|---------|---------|---------|--------------------------------|
| | | 2018 | 2019 | 2020 | 2022 | |
| 1. | Jami mehnat resurslari | 17899,1 | 18104,8 | 18250,1 | 18492,6 | 103,3 |
| 2. | Iqtisodiy faol ahol | 13163 | 13505,4 | 13750,8 | 14022,4 | 106,5 |
| 3. | Ish bilan bandlar | 12523,3 | 12818,4 | 13052,5 | 13298,4 | 106,2 |
| 4. | Mehnat qilishga muhtoj aholi | 639,7 | 687 | 698,3 | 724 | 113,2 |
| 5. | Iqtisodiy nomaol aholi | 4736,1 | 4599,4 | 4499,3 | 4470,2 | 94,4 |

O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga ko'ra, aholi mehnatlayokati bo'yicha uch guruhga ajratiladi. Jumladan:

- mehnatga qobiliyatli yoshgacha (0-15 yosh);
- mehnatga qobiliyatli yoshdagi (16-54 yoshli ayollar, 16-59 yoshli erkaklar);
- mehnatga qobiliyatli yoshdan kattalar (55 yosh va undan katta ayollar, 60 yosh va undan katta erkaklar) [9].

Ishlab chiqarish korxonalaridagi mehnat ko'rsatkichlarini alohida ko'rsatkichlar bo'yicha bo'limlarga bo'lib tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Korxonaning asosiy ko'rsatkichi – bu ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmidir. Mahsulot hajmini faqatgina mehnat unumdorligini oshirish bilan emas, balki ishchilar sonini ko'paytirish yo'li bilan ham oshirish mumkin. Bunda mehnat unumdorligi ko'rsatkichi asosiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi tahlili ma'lum usul asosida amalga oshiriladi. Usul umuman olganda muayyan ishni bajarish uslubini bildiradi, u turli yo'llar va zarur texnik vositalar majmuasini o'z ichiga oladi. Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini tahlil etishga tadbiriq etganda, usul deganda korxonada tomonidan qo'yilgan maqsadga erishish sohasidagi faoliyatga baho berish yo'li tushuniladi, bunda muayyan tashkiliy-texnikaviy sharoitdagi mazkur mehnat potentsiali mavjud bo'ladi[7].

Mehnat resurslarini tahlil qilishning asosiy maqsadi korxonada brigadadan tortib birlashma va tarmoqqacha bo'lgan jamoalarda ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini rejalashtirishning asoslanganligini oshirishdan, uni boshqarishning takomillashtirishdan iboratdir.

2-jadval

Andijon viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlarining kadrlar sifat tarkibi
[15]

| Ko'rsatkichlar | 2021 yil | | 2022 yil | |
|--|----------|-------|----------|-------|
| | Soni | Foizi | Soni | Foizi |
| Jami xodimlar | 250 | 100 | 275 | 100 |
| Shundan:Xotin-qizlar | 185 | 74 | 190 | 69,1 |
| erkaklar | 65 | 26 | 85 | 30,9 |
| Oliy ma'lumotlilar | 7 | 2,8 | 7 | 2,6 |
| O'rta maxsus ma'lumotlilar | 85 | 34 | 91 | 33,1 |
| Bilim yurti kurslarini bitirganlar | 158 | 63,2 | 177 | 64,4 |
| Ish staji bo'yicha“Xarir tola” MCHJ tizimida 3 yil va undan ortiq ishlovchilar | 124 | 49,6 | 138 | 50,2 |

Tahlil qilish jarayonida jamoa shartnomasini uning barcha yo'nalishlari bo'yicha o'rganib chiqish, shuningdek asosiy ko'rsatkichlarnirig dinamikasini ham umumiy yakun bo'yicha, ham har bir xodimga to'g'ri keladigan darajada o'rganish zarur. To'liq baho berish uchun korxonabo'yicha qiyosiy tahlil o'tkaziladi. Tahlil yakunida korxonada xodimlarini ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirishga, ularning mehnat sharoitini, ijtimoiy-madaniy va uy-joy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan muayyan tadbirlar ishlab chiqiladi, ular kelgusi yilga mo'ljallangan ijtimoiy rivojlantirish rejalarini va jamoa shartnomasini ishlab chiqarishda hisobga olinadi.

3-jadval

2022 yilda Andijon viloyatidagi agroklastlarining mehnat resurslaridan foydalanish holati [15]

| Ko'rsatkichlar | O'tganyili | 2022 yil | | Chetga chiqarish | |
|----------------|------------|----------|-----------|------------------|-----------|
| | | Reja | Haqiqatda | Reja | Haqiqatda |

| | | | | | |
|---|----------|--------|----------|---------|---------|
| Xodimlarning o'rtacha yillik soni (XS) | 275 | 275 | 278 | - | 3 |
| Bir ishchining bir yilda ishlagan kunlari (D) | 225 | 220 | 218 | -5 | -2 |
| Soatlar (S) | 1766,25 | 1749 | 1722,2 | -17,25 | -44,05 |
| Ish kunining o'rtacha muddati (M), S | 7,85 | 7,95 | 7,90 | -0,10 | -0,05 |
| Ish vaqti fondi (S) | 485718,8 | 480975 | 478771,6 | -4743,8 | -6947,2 |

Andijon viloyatidagi agroklastlarining mehnat resurslaridan foydalanish holati 2022 yilda tahlil qilinganda, xodimlarning o'rtacha yillik soni rejada 275 kishi bo'lib, haqiqatda esa 375 kishiga yoki chetga chiqarish 3 kishiga o'sgan. Ushbu korxonada 2022 yilda haqiqatda bir ishchining bir yilda ishlagan kunlari 225 kunni tashkil qilgan. 2022 yilda esa bu ko'rsatkich rejada 220 kun qilib rejalashtirilgan, ammo haqiqatda 218 kun yoki chetga chiqarish bir ishchining bir yilda ishlagan kunlari haqiqatda 2 kunga kamaygan (3-jadval) .

Mehnat resurslaridan to'liq foydalanishga tahlil qilinayotgan davrda bitta xodim tomonidan ishlangan kunlar va soatlar soniga qarab baho berish mumkin. Bunday tahlil xodimlarning har bir toifasi bo'yicha, har bir ishlab chiqarish bo'linmasi va umuman korxonaga bo'yicha o'tkaziladi.

Ish vaqti fondi (IVF) xodimlar soniga (XS), bir xodim bir yilda o'rta hisobda ishlab bergan kunlar soniga (D) va ish vaqtining o'rtacha muddatiga (M) bog'liqdir:

$$IVF=XS \times D \times M=275 \times 218 \times 7,90 = 478771,6c$$

Tahlil etilayotgan MCHJda 2021 yilda haqiqiy ish vaqti fondi rejalashtirilgandan 1533,4 soat kamroqdir.

Ularga rejada ko'zda tutilmagan turli obyektiv va subyektiv holatlar sabab bo'lgan: ma'muriyat tomonidan ruxsat etilgan qo'shimcha ta'tillar, ishchilarning kasalligi tufayli vaqtincha mehnatga layoqatsizligi, ishga kelmay qolish, asbob- uskunalar, mashinalar, mexanizmlarning nosozligi tufayli bekor turib qolishlar, ishning, xom ashyo, material, elektr energiya, yoqilg'i va hokazolarning yo'qligi. Vaqtning bekor sarf bo'linishining har bir turi batafsil tahlil etiladi, ayniqsa korxonaga bog'liq bekor vaqt. Mehnat jamoasining o'ziga bog'liq sabablar bilan bog'liq vaqtning bekor sarf etilishini kamaytirish mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish rezervi hisoblanadi, u qo'shimcha kapital mablag'lar talab qilmaydi vatezda samara olish imkonini beradi[10].

Umuman olganda, mavjud ish kuchidan to'laroq foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirish, umumiy bo'lgan ishlab chiqarish texnikasini joriy etish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishni takomillashtirish hisobiga korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlashdagi keskinlikni bir muncha bartaraf etish mumkin.

Agar korxonaga o'z faoliyatini kengaytirsam, ishlab chiqariladigan mahsulot quvvatlarini kengaytirsam va yangi ish o'rinlarini tashkil etsam, u holda mehnat resurslariga bo'lgan

qo'shimcha ehtiyojlarni toifalar va kasblar bo'yicha aniqlash, ularni jalb qilish manbalarini topish kerak bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligida ishchi kuchidan foydalanish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu ishlab chiqarish sharoitidan foydalaniladigan texnologiyadan, texnika bilan ta'minlanish darajasining mavjudligidan keltirib chiqadi. Shunday xususiyatlardan biri ish davri va ishlab chiqarish davrining mos kelmasligidan kelib chiqadigan ish kunidan foydalanishning mavsumiyligidir. Mavsumiylik ish muddatining qisqaligidan, ayniqsa qishloq xo'jaligida ekish hosilni yig'ish va boshqa jarayonlarning ob-havoga bog'liqligidan kelib chiqadi. Eng ko'p vaqt bizda hosilni yig'ib oladigan oylarga to'g'ri keladi (sentyabr, oktyabr), eng oz qish oylari (yanvar, fevral)ga to'g'ri keladi[11].

Andijon viloyatidagi agroklastlar faoliyatini rivojlantirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari atroflicha o'rganish va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchi- Fermer xo'jaligi to'g'risidagi Qonun va yerni ijaraga olish shartnomasi shartlaridan chetga chiqmagan holda qo'shimcha faoliyat turini ishga tushirish va qo'shimcha ish joylarini tashkil etish;

Ikkinchi- Andijon viloyati qishloq xo'jalik boshqarmasining ilg'or va samarali faoliyat olib borayotgan agroklastlarida faoliyat olib borayotgan a'zolarining ishlash va yashashi uchun barcha sharoitlarni yaratish, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning samarali shakllarini ishlab chiqish va amalga tadbir etish;

Uchinchi- Mehnat jamosi tarkibini tubdan yaxshilash, maxsus malakaviy tayyorgarlikka va ko'nikmaga ega bo'lgan xodimlar xissasini keskin oshirish va unga mos xolda avvalo xodimlarning bir-biriga yaqin bo'lgan kamida 4-5 ta kasbiy tayyorgarlikni egallashlarini ta'minlash.

To'rtinchi- Andijon viloyatidagi agroklastlar a'zolarining nafaqat texnik-texnologik soxalardagi balki iqtisodiy va huquqiy bilimlarini hamda amaliy ko'nikmalarini mustaxkamlash

- Andijon viloyatidagi agroklastlarida mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolar mehnat unumdorligi darajasini yuksaltirishga hozirgi davrda alohida e'tibor berish lozim. Bu masalaning hal etilishida eng ta'sirchan omil moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Afsuski, xo'jalikda bu masalada amalga oshirilayotgan ishlarni yetarli deb bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli farmoni. Toshkent 2019 yil 23 oktyabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF 60-son farmoni "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-apreldagi "Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi.PQ-4273-son qarori// 11.04.2019-yil.
4. А.В.Турьянский, В.Л.Аничин. Сельскохозяйственная кооперация и агропромышленная интеграция. Учебное пособие. 2-е изд. испр. и доп. - Белгород: Издательство БелГСХА, 2010. – 125 с.
5. Р. Хахимов. Агросаноат мажмуаси иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2009. – 19 б.
6. O.Shermatov, B.Nosirov, R.Imomov, M.Qobulova. Problems of effective usage of lands in agriculture for ensuring food security. South Asian Journal of Marketing & Management research, 10 (4), p. 71-76. <https://saarj.com/wp-content/uploads/special->

[issue/sajmmr/2020/SAJMMR-APRIL-2020-SPECIAL-ISSUE.pdf](#).

7. М.Я.Қобулова. Агросаноат интеграциясини ривожлантиришда кадрлар салоҳиятидан самарали фойдаланиш. “Иқтисодийда инновациялар” журнали. ISSN 2181-9491. №8 (2020). 86-94-бет. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9491-2020-8>

8. Шерматов О.А, Кабулова М.Я. Экономическая эффективность в оценке критериев и показателей в сельском хозяйстве. Актуальная наука. Международный научный журнал. ISSN 2587-9022. №10(27) 2019 г

9. Kobulova Mahpubahon Yakibovna, Jurayeva Maftunahon Alisher qizi, Managing the use of labor potential in the development of ntegration processes. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) issn (e): 2347-6915 Vol. 10, Issue 6, June (2022). India-**136118** <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2196>

10. Kobulova Mahpubahon Yakibovna, Ismatova Nigora Maxamadamin qizi, Use and management of human resources for the development of agro-industrial integration. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. ISSN NO:2720-4030 Volume 7, June, 2022. Polsha. <https://periodica.com>. <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/145>

11. Kobulova Mahpubahon Yakibovna, Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna. Organizational economic foundations of sustainable development of agroclusters. Fars Int J Edu Soc Sci Hum 1(1); 2022; **Volume-1| Issue-1| 2022 Research Article. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7219600>. Philippines 3500. <https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/20>**

12. Atajanova Rahatoy Dilmurodovna. AQXAI. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2022 y.

13. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

14. Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>.

15. Andijon statistika qo'mitasi rasmiy sayti: Andstat.uz